

QADIMGI VA ILK PODSHOXLIK DAVRIDA MISR**Mahmudova Zulfiya Alimjanovna***Andijon Davlat pedagogika instituti**Ijtimoiy gumanitar fanlar kafedrasi o'qituvchisi***Dusbekov Mavlon Xaqqul o'g'li***Andijon Davlat pedagogika instituti**Ijtimoiy gumanitar va san'at fakulteti 101-guruh talabasi*

Annotatsiya: Ushbu referat Qadimgi Misr sivilizatsiyasining asosiy jihatlarini haqida qisqacha ma'lumot beradi. Nil daryosi vodiysida shakllangan bu qadimiy madaniyatning siyosiy tuzumi, ijtimoiy hayoti, dini va madaniy yutuqlari ko'rib chiqiladi. Fir'avnlar hokimiyati, piramidalar qurilishi, ko'p xudolik e'tiqodi va ierogliflar yozuvi kabi Qadimgi Misrning o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi. Qadimgi Misr sivilizatsiyasining jahon madaniyati rivojiga qo'shgan hissasi ham qisqacha yoritiladi.

Kalit so'z: Nil, fir'avn, piramida, ierogliflar, mumiyolash, Sfinks, papirus, Quyosh xudosi Ra, firavnlari, Tutanxamon, Kleopatra, Giza, Karnak, Luksor, Osiris, Amon, iyerogliflar, Rosetta toshi, Misr san'ati, Qadimgi podsholik

Abstract: This essay provides a brief overview of the main aspects of the Ancient Egyptian civilization. The political system, social life, religion, and cultural achievements of this ancient civilization formed in the Nile River Valley are examined. Ancient Egyptian characteristics such as the power of the pharaohs, the construction of the pyramids, polytheism, and hieroglyphic writing are analyzed. The contribution of the ancient Egyptian civilization to the development of world culture is also briefly covered.

Key word: Nile, Pharaoh, Pyramid, Hieroglyphics, Mummification, Sphinx, Papyrus, Sun God Ra, Pharaohs, Tutankhamun, Cleopatra, Giza, Karnak, Luxor, Osiris, Amon, Hieroglyphics, Rosetta Stone, Egyptian Art, Ancient Kingdom

Абстрактный: В этом эссе представлен краткий обзор основных аспектов древнеегипетской цивилизации. Рассмотрены политическая система, общественная жизнь, религия и культурные достижения этой древней цивилизации, сформировавшейся в долине реки Нил. Анализируются древнеегипетские характеристики, такие как власть фараонов, строительство пирамид, многобожие, иероглифическое письмо. Также кратко освещен вклад древнеегипетской цивилизации в развитие мировой культуры.

Ключевые слова: Нил, Фараон, Пирамида, Иероглифы, Мумификация, Сфинкс, Папирус, Бог Солнца Ра, Фараоны, Тутанхамон, Клеопатра, Гиза,

Карнак, Луксор, Осирис, Амон, Иероглифы, Розеттский камень, Египетское искусство, Древнее царство

Kirish. Qadimgi Misr, insoniyat tarixidagi eng buyuk tsivilizatsiyalardan biri sifatida, o'zining boy madaniyati, rivojlangan san'ati, ilm-fani va ijtimoiy tuzilmalari bilan ajralib turadi. Ushbu tsivilizatsiya miloddan avvalgi taxminan 3100-yildan boshlab, miloddan avvalgi 30-yilgacha davom etdi. Misrning qadimgi davri Nilo daryosi atrofida shakllangan bo'lib, bu daryo uning qishloq xo'jaligi, iqtisodiyoti va madaniyatining asosini tashkil etdi. Nilning muntazam toshqinlari hosil qilgan unumdor tuproq, aholining qishloq xo'jaligi faoliyatini rivojlantirishga va aholi zichligini oshirishga yordam berdi.

Qadimgi Misrning tarixiy rivojlanishi davomida bir nechta dinamik bosqichlar o'tdi, jumladan, Erta Qirollik, O'rta Qirollik va Keyingi Qirollik davrlari. Har bir davr o'ziga xos ijtimoiy, siyosiy va madaniy xususiyatlarga ega bo'lib, ularda faraonlar muhim rol o'ynadi. Faraonlar nafaqat siyosiy rahbarlar, balki diniy yetakchilar sifatida ham xizmat qildilar, shuning uchun ularning qiyofasi va faoliyatlari qadimgi misrliklarning e'tiqodida va hayotida muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Qadimgi Misrning arxitekturasini, jumladan, piramidalar, ibodatxonalar va monumental inshootlar, dunyoning eng hayratlanarli va taniqli yodgorliklaridan biri bo'lib, ularning qurilishi va maqsadlari hozirgi kungacha olimlarni qiziqitirib kelmoqda. Misr san'ati va adabiyoti ham o'zining boyligi va xilma-xilligi bilan ajralib turadi; ijtimoiy hayot, urushlar, diniy marosimlar va tabiiy go'zalliklar haqida yozilgan asarlar qadimgi misrliklarning madaniyatiga chuqur nazar solishga imkon beradi.

Bu referatda qadimgi Misr tsivilizatsiyasining rivojlanishiga, uning ijtimoiy tuzilmasiga, madaniyatiga va ilm-faniga chuqurroq nazar tashlaymiz. Shuningdek, qadimgi Misrning zamonaviy jamiyatga ta'siri va merosi hamda arkeologik tadqiqotlar natijalari ko'rib chiqiladi. Qadimgi Misrning boy tarixi va madaniyati, hozirgi kunda ham ko'plab tadqiqotchilar va qiziqish bildirayotgan insonlar uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, u bizning madaniy merosimizning ajralmas qismi hisoblanadi.

Misrda odamlar paleolit davridan boshlab yashaganlar. Miloddan avvalgi 10—6ming yillikda Nil atrofida savannalarda tarqoq yashagan qabilalar terimchilik, ovchilik, keyinroq esa baliq ovlash bilan shug'ullanishgan. Ular orasida kad, som xalqlariga mansub qabilalar, barbarlar va kushitlar bo'lib, ularning aralashuvidan

miloddan avvalgi 4 ming yillikda Misr xalqi vujudga kelgan. Aholi nufuzining ortishi chorvachilik va dehqonchilikka o‘tishni tezlashtirgan, bu esa hududiy jamoalarning paydo bo‘lishiga olib kelgan.

Dehqonchilik qilish uchun kanallar, to‘g‘onlar qurish zaruriyati tug‘ilgan, buning uchun esa o‘zaro urushlarda asir tushgan qullar mehnatidan foydalanilgan. Natijada jamoada ijtimoiy tabaqalanish ro‘y berib, urug‘ zodagonlari ajralib chiqqan, qabila sardorlari podshohchalarga aylangan.

Bir qancha mayda quldorlik davlatlar vujudga kelgan. Keyinchalik ular o‘rtasidagi kurash natijasida, shimolida Quyi Misr, janubida Yuqori Misr podsholiklari tuzilgan. Miloddan avvalgi taxminan 3ming yillikda ikkala podsholik birlashib, yagona davlat barpo bo‘lgan. Misrning keyingi tarixi 5 asosiy davrga bo‘linadi:



Ilk podsholik (miloddan avvalgi taxminan 3000—2800), Qadimgi podsholik (miloddan avvalgi taxminan 2800—2250), O‘rta podsholik (miloddan avvalgi taxminan 2050—1700), Yangi podsholik (miloddan avvalgi 1580—1070), So‘nggi (Liviya-Sais va Eron) davr (miloddan avvalgi taxminan 1070—332).

Qadimgi podsholik davrida qishloq xo‘jaligi, hunarmandchilik, savdo va qurilish rivojlanishda davom etgan. Xususiy yer egaligi paydo bo‘lgan. Oliy mansabdor — tchat (vazir) bosh bo‘lgan davlat apparati mustahkamlangan. Fir‘avnlr, shuningdek, bosh kohin ham bo‘lib, barcha yer va fuqarolarning egasi hisoblangan. Jamoa a‘zolari va qisman kelgindilar (asosan, Kush aholisi)dan tuzilgan muntazam qo‘shin barpo qilingan. Ilohiylashtirilgan fir‘avnlarning mutlaq hokimiyati g‘oyasi mahobatli maqbaralar — ehromlar qurilishida mujassamlantirilgan. Bu ayniqsa III —IV sulolalar davrida (Snofru, Xeops, Xefren, Mikerin ehromlari) avj olgan. Ularni bunyod etishda qul va dehqonlar mehnatidan keng foydalanilgan.

Miloddan avvalgi XXIII-XXII asrlarda Misr o‘zaro nizoda bo‘lgan bir qancha nomlar va mayda davlatlarga bo‘linib ketgan. taxminan 2050-yil Mentuxotep I davrida mamlakat Fiva shahri gegemonligi ostida qayta birlashgan. Bu shahar Misrning poytaxtiga aylangan.

O‘rta podsholik davrida, asosan, XII sulola vakillari hukmronlik qilishgan. Fayyum vohasida yirik irrigatsiya ishlari olib borilgan. Jez (bronza) buyumlari paydo bo‘lgan. [Suriya](#), [Krit](#), janubida — Punt bilan aloqalar kuchaygan. Senusert III davrida

Kush (Nubiya)ning bir qismi Misr ga qo‘shib olingan. XII sulolaga mansub dastlabki fir‘avnlarda davrida o‘zaro ichki nizolar davom etmoqda edi. Faqat Amenemhet III davrida (XIX asrning 2-yarmi) isyonkor nomarxlar bo‘ysundirilib, markaziy hokimiyat mustahkamlangan. Ittaun shahri Misr poytaxtiga aylangan. Biroq mulkiy tabaqalanishning kuchayishi kambag‘allarning qo‘zg‘oloniga sabab bo‘lgan, natijada taxminan 1750-yil mamlakat yana parchalanib ketgan. taxminan 1700-yil Misrga shim.-sharqdan giksoslar bostirib kirib, mamlakatning katta qismini deyarli 110 yil egallab turganlar. Avarisda qo‘nim topgan ularning podshoxlari XV va XVI sulolani tashkil etishgan. Fivada mahalliy hukmdorlar saqlanib qolgan (XVI1 sulola). Ushbu sulolaga mansub fir‘avnlardan Sekenenra va Kamos ozodlik urushini boshlab yuborishgan, bu kurash ularning vorisi XVIII sulola asoschisi Yaxmos I (Amasis) tomonidan muvaffaqiyatli yakunlangan. U taxminan 1580-yil giksoslarni Misrdan quvib chiqargan. Shundan so‘ng tiklangan Misr davlati Yangi podsholik deb atalgan. Bu davrda jezdani keng qo‘llanila boshlangan, temirdan ishlangan dastlabki buyumlar paydo bo‘lgan, metallsozlik, to‘qimachilik dastgohi va omoch takomillashtirish, g‘ildirakli ara-valar keng tarqalgan, shishasozlik rivojlangan. Bo‘ysundirilgan va qo‘shni mamlakatlardan o‘lpon sifatida va ayirboshlash yo‘li bilan xom ashyo olib kelingan, jumladan, kumush, qo‘rg‘oshin, mis, yog‘och materiallari Suriya va Falastindan, oltin, fil suyagi Kushdan, xushbo‘y atirlar, oliy nav daraxt ko‘chatlari Puntadan keltirilgan. Malika Xatshepsut tomonidan Puntga jo‘natilgan flot haqidagi ma‘lumot saqlangan. Xususiyl qulchilik nihoyatda keng rivojlangan. Muvaffaqiyatli harbiyl yurishlardan so‘ng 10 minglab qullar keltirilgan. Tinimsiz davom etgan urushlar XVIII—XX sulolalar fir‘avnlarni qo‘shin tuzilishini takomillashtirishni o‘ylashga majbur qilgan, qo‘shin asosini zodagon aravakashlar tashkil qilgan. Piyoda qo‘shin uchun namunaviyl qurol, xususan, ulama kamoni joriyl etilgan. Bu tadbirlar armiya nung jan-govarlik qobiliyatini oshirgan. Yaxmosning vorislari Tutmos I, ayniqsa, Tutmos III, Amenxotep II shimolida Suriya va Falastinni, janubida — Kushning bir qismini M.ga qo‘shib olganlar. Mitanni, Bobil va Xett podsholigi bilan muntazam diplomatik alokalar o‘rnatilgan. Amenxotep III davrida (XV asrning 2-yarmi) Misr o‘z qudratining yuksak cho‘qqisiga yetgan. Fir‘avnlardan katta yerlar, qullar, oltin va boshqa olib turgan ibodatxonalar mavqeining ortishi kohlarni podsho hokimiyati bilan to‘qnashuviga olib kelgan. Kohinlar va zodagon nomlar mavqeini pasaytirish maqsadida Amenxotep IV (Exnaton) mayda va o‘rta yer egalariga tayangan holda diniyl islo-hot o‘tkazgan, xususan, eski ma‘budlarga sig‘inishni bekor qilib, yagona quyosh ma‘budi — Atonga sig‘inishni joriyl qilgan.

Exnaton o‘z qarorgohini yangi qurgan shahri Axetatonga (hozirgi Al-Amarna) ko‘chirgan. Fir‘avn bilan kohinlar o‘rtasidagi kurash Misrni zaiflashtirgan; XIV asrning 1-yarmida u shimolidagi barcha mulklardan ajralgan. Exnatonning vafotidan so‘ng fir‘avnlardan Tutanhamon va Xoremxeb davrida kohinlar va zodagonlar eski dini tiklashga erishganlar. XIX sulolaning eng mashhur vakili Ramses I davrida Suriyani egallash uchun xetlar bilan kurash olib borilgan. Miloddan avvalgi XIII asrning 2-yarmi —12-asr boshida, fir‘avnlari Merneptax va Ramses IV davrida „dengiz xalqlari“ va liviyaliklar bosqini qaytarilgan.

Uzok, davom etgan urushlar M.ning iqtisodiy, siyosiy va harbiy jihatdan zaiflashuviga olib kelgan; XX sulola hukmronligining oxiriga kelib Suriya va Kushning jan. viloyatlaridagi mulklar qo‘ldan ketgan. Ramses XII davrida (miloddan avvalgi taxminan 1070-yil) Fivadagi hokimiyat amalda Amon ma‘budning oliy kohini — Xerixor qo‘liga o‘tgan.

So‘nggi (Liviya — Sais va Eron) davrida temirdan foydalanish, pul muomalasi keng tarqalgan. 11-asrning 2-yarmi —10-asr boshida M.ning navbatdagi parchalanishidan so‘ng liviyalik harbiylar rahbari Sheshoik 10-asr o‘rtasida Bubastida xrkimiyatni qo‘lga olib, XXII sulolani boshlab bergan. Bu sulola fir‘avnlari Misrni yagona davlat qilib birlashtirishga intilganlar. Miloddan avvalgi 8-asr 2-yarmida Misr Kushga tobe bo‘lib qolgan (XXV sulola), miloddan avvalgi 671 yil esa ossuriyaliklar tomonidan bosib olingan. Sais hokimi Psammetix I (663—610) yunon va kariyalik yollanma qo‘shin yordamida mamlakatni ozod qilishga va uni birlashtirishga erishgan. U va uning vorisi Nexo II davrida Yunoniston va Sharqiy O‘rta dengizning boshqa mamlakatlari bilan mustahkam savdo aloqalari o‘rnatilgan, Deltada yunonlar manzilgohi (koloniyasi) Navkratisga asos solinadi, Nilni Qizil dengiz bilan bog‘lovchi kanal kaziladi; Nexo II tomonidan yuborilgan finikiyalik dengizchilar Afrika qit‘asini Sharkdan G‘arbga aylanib o‘tishgan. Nexo II,



Psammetix II va Apriy Suriya va Falastinga egalik qilish uchun Bobil bilan kurash olib borishgan. Biroq zaiflashib qolgan M. Eron podshosi Kambis qo‘shini zarbasini qaytara olmagan va miloddan avvalgi 525 yil [Axomaniylar](#) davlati tarkibiga qo‘shib yuborilgan. Miloddan avvalgi 331 yil Aleksandr (Iskandar Maqduniy) axomaniylarga qarshi yurishi chog‘ida Misrni bosib olgan.

Shundan so‘ng M. ellinistik dunyoning bir qismiga aylangan. Makedoniyalik

Iskandar tomonidan asos solingan Iskandariya shahri eng yirik savdo va madaniy markazga aylangan. M.da hunarmandchilik va savdoning yangi markazlari vujudga kelgan, savdo aloqalari (Arabiston va Hindistongacha) kengaygan, G‘arb va Sharq davlatlari madaniyatlarining uyg‘unlashuvi sodir bo‘lgan. Miloddan avvalgi 2-asrning oxiriga kelib ishlab chiqarish pasaygan, bozorlar kamaygan, iqtisodiy va siyosiy tushkunlik ro‘y bergan. Miloddan avvalgi 2-asr boshlarida Sshavkiylar davlati va Makedoniya bilan bo‘lgan urushlardan so‘ng Misr ko‘p yerlaridan ajralgan. Mamlakatda o‘zaro ichki nizolar, xalq galayonlari avj olgan. Bu davrda Rim Misrning ichki ishlariga aralasha boshlagan. Misr zodagonlari uning yordamida galayonlarni bostirishga harakat qilgan. Bu Misrni rimliklar Misrliklar ma’budi Tot— iyerogrif yozuvi ijodkori (papiirus; London, [Britaniya muzeyi](#)).tomonidan bosib olinishiga imkon bergan, natijada miloddan avvalgi 30 yildan Misr — Rim viloyati. Milodiy 395 yil [Rim imperiyasi](#) bo‘lingach, Sharqiy Rim imperiyasi (Vizantiya) viloyati. 619 yil Eron shohi Xusrav II Vizantiyaning zaiflashib qolganidan foydalanib, M.ni bosib olgan. 639—642 yillarda M.ni arablar zabt etgan. M.ning keyingi tarixi haqida Misr Arab Respublikasi maqolasiga qarang.

Qad. Misr hukmdorlari. Ilk podsholik. 1sulola: Meneye, Jer, Den, Semerxet, Ka. 2sulola: Xotep-Sexe-mui, Nebra, Peribsen, Xasexem, Xa-sexemui. Qad. podsholik. 3sulola: Joser, Sexemxet, Neferka. 4sulola (miloddan avvalgi 28—26-asr o‘rtalari): Snofru, Xeops (Xufu), Xafra (Xefren), Mikerin (Menkaura), Shebeyeska. 5sulola (miloddan avvalgi 26—25-asrlar): Userkaf, Neferirkara, Neusera, Isesi, Una. 6sulola: (miloddan avvalgi 25—23-asr o‘rtalari); Teti I, Piopi I, Merenra I, Piopi II, Merenra II. 7, 8, 9sulolalar (miloddan avvalgi 23—22-asr o‘rtalari). 10sulola (miloddan avvalgi 22—21-asr o‘rtalari). 11sulola: Antef I Sexertai, Menxuxotep III Nebxepetra.

Maorifi. Qadimgi podsholik davrida fir’avnlr saroyida bo‘lajak mirzalarni tayyorlaydigan maktablar tashkil qilingan. Keyinchalik ibodatxonalar va yirik davlat idoralari qoshida ham maktablar ochilgan. Maktabda 5 yoshdan 16 yoshgacha bo‘lgan bolalar o‘qitilgan; 12 yoshdan boshlab talabalar idoralarda mirzalik qilishgan. Mashg‘ulotlar tong sahardan kechgacha davom etgan; maktabda qattiq institutizom joriy etilgan, tan jazosi qo‘llangan. O‘quv, yozuv va hisob asosiy fanlar bo‘lgan. O‘quv predmetlaridan tashqari, maktabda gimnastika mashg‘ulotlari va suzish, yaxshi muomalaga o‘rgatilgan. Ibodatxonalar qoshidagi maktablarda umumiy va diniy bilimlar bilan birga astronomiya, tibbiyot o‘rgatilgan. Zodagonlarning bolalari qo‘shin boshliklari tayyorlaydigan harbiy maktablarda ta’lim olishgan.

Texnika va fani. Nil vodiysida paleolit davridayoq [mehnat qurollari](#) ishlangan. Keyinchalik neolit davrida (miloddan avvalgi 5ming yillik) aholi ovchilikdan



chorvachilik, so‘ngra dehqonchilikka o‘tishi bilan tosh, suyak va yog‘ochdan ishlangan dastlabki qishloq xo‘jaligi asboblari— cho‘kich, o‘roq va boshqa paydo bo‘lgan. Miloddan avvalgi 4ming yillikdan boshlab, mis ishlatila boshlangan, kulolchilik dastgohi paydo bo‘lgan. 3ming yillikdan shishasozlik rivojlana boshlagan. 2-ming yillikdan jezdan foydalanila

boshlangan. Temirdan yasalgan ilk buyumlar miloddan avvalgi 2-ming yillik o‘rtalariga oiddir. Misrlilar oltin va kumushdan haqiqiy san‘at asarlarini yaratganlar. Sun‘iy sug‘orishdan keng foydalanilgan, kanal va to‘g‘onlar bunyod etilgan. Yuqoriga suv chiqarish uchun laylak (havoza-shaduf), chig‘ir (sakkis)dan foydalanishgan. Ilk podsholik davrida omoch paydo bo‘lgan.

Qad. Misrda asosiy qurilish materiali sifatida loy va qamishdan foydalanilgan. Fir‘avnlr saroyi va qal‘alar qurilishida xom g‘isht ishlatilgan. Tosharga sayqal berishda misrlilar ajoyib yutuklarga erishganlar. Ehromlar qurishda ishlatiladigan katta tosh plitalarni yuqoriga richag, havoza yordamida ko‘targanlar. Matematika, astronomiya taraqqiy etgan. Kohinlar va mirzalar oddiy asboblari (chizgich, tosh bog‘langan ip) yordamida sayyoralari va yulduzlarning holatini belgilashgan. Vaqtni belgilash uchun quyosh va suv so-atlari (klependralar)dan foydalanganlar. Sodda geografik haritalar va shahar loyihasi rejaları tuzilgan. M.lıklar planimetriya, ayniqsa, [stereometriya](#) sohasida bilimli bo‘lishgan; to‘g‘ri to‘rtburchaklar, uchburchaklar, aylanalar yuzasi, oddiy va kesik piramidalar sirti va hajmini hisoblab chiqishgan. Yil 3 mavsum (toshqin, o‘rim, qurg‘oqchilik) va 12 oyga bo‘lingan. Har oy 30 kundan iborat bo‘lgan, yil oxirida qo‘shimcha 5 kun kiritilgan, bu har 4 yilda astronomik yil bilan kalendar yili o‘rtasidagi 1 kunga farq qilinishiga imkon bergan. Jarrohlik rivojlangan, tabiblar bosh miyani ochganlar, tishlarga plomba qo‘yganlar. Jasadlarni mumiyolashda turli anvoi xushbo‘yliklar, doridarmonlar, bo‘yoqlar va boshqalarni tayyorlashgan.

Misrlilarning turli sohalardagi bilimlari jahon fanining rivojiga muhim hissa qo‘shgan. Yunonlar Misrni qad. donishmandlar yurti deb, Misrlilarni esa o‘z ustozlari deb hisoblab kelishgan.

Mifologiya va dini. Misr miflari orasida markaziy o‘rinni dunyoni yaratilishi, insonlarni qilgan gunoxlari uchun jazolash, quyosh xudosi Ra bilan ilon Apop obrazidagi zulmat kuchlari o‘rtasidagi kurash, Osirisning o‘limi va qayta tirilishi va boshqa egallaydi.

Misrliklar dini ilk urug‘doshlik jamoalarida vujudga kelgan. Diniy an‘analar mustahkam va turg‘un bo‘lgan. Fetishizm, totemizm ayniqsa, hayvonlarga topinish, Misrda uzoq vaqt davom etgan. Politeizm mavjud bo‘lgan. Deyarli har bir ma‘bud qandaydir hayvon ko‘rinishida tasvirlangan. Masalan, Anubis ma‘budi bo‘ri, ma‘buda Bast — mushuk ko‘rinishida tasvirlangan. Keyinchalik ma‘budlar insoniy qiyofa olgan. Aholi dehqonchilik va chorvachilik bilan shug‘ullana boshlagach, turli xil tabiat kuchlarini o‘zida ifodalovchi ma‘budlarga, jumladan, osmon (ma‘bud Nut), Yer (ma‘bud Geb), Quyosh (ma‘bud Ra), Oy (ma‘bud Tot) va boshqa ga sig‘inish kuchaygan. Xapi ma‘budi obrazida Misrlik dehqonlar Nil daryosiga sig‘inishgan. M.da juda boy diniy va jodu kitoblari yaratilgan. Afsunlar, duolar, sharxlar, ma‘budlarga iltijolar to‘plam qilingan (mas, „Ehrom matnlari“, „Sarqofa matnlari“, „Murdalar kitobi“ va boshqalar). Qad. Misr ilohiyoti antik dunyo dinlarida keng tarqalib, xristian aqidalari, urf-odatlariga katta ta’sir ko‘rsatgan.

Adabiyoti. Misr tilida yozilgan eng qadimgi yodgorliklar miloddan avvalgi 3ming yillikka, so‘nggilari esa mil.ning boshlariga oiddir. Misr adabiyoti namunalari bizgacha ko‘plab iyeroglif, iyeratik va elief matnlarda yetib kelgan. Misr Adabiyoti Fir‘avn Taharka ulkan lochin kiyofasidagi ma‘bud, Gorga sajda qilmoqda (zarhal jez; Parij, Luvr).dunyodagi eng kad. Adabiyotlardan biridir. Misr adabiyotining asosiy janrlari: ertaklar, qissalar, madhiyalar va duolar, didaktik asarlar, masallar, dostonlar, sevgi lirikasi va boshqadir.

Me‘morlik, tasviriy va amaliy-bezak san‘ati. Din va ilohiylashtirilgan fir‘avn kulti ehtiyojlariga xizmat qilishi lozim bo‘lgan Misr san‘ati o‘z g‘oyalarini qat’iy belgilangan shaklda ifodalagan. Me‘morlik fir‘avnlr hokimiyatining qudratini, ulug‘vorligini va mashhurligini ko‘rsatishga qaratilgan, shu maqsadda bino (ehrom, ibodatxona, saroy va boshqalar) larning ulkan, hashamatli bo‘lishiga ahamiyat berildi.

Nil daryosi vodiysidagi badiiy madaniyat yodgorliklari qadimdan ma‘lum. Miloddan avvalgi 5—4ming yilliklarda loy va qamishdan qurilgan turar joylar o‘rniga asta-sekin yog‘och va xom g‘ishtdan to‘g‘ri to‘rtburchak tarxli turar joylar qurilgan. Ilk podsholik davrida qad. M. san‘ati tamoyillari, turlari va janrlari shakllangan. Bu davrda diniy me‘morlikning asosiy turi — mastabalar to‘g‘ri

to‘rtburchak tarxda ko‘plab qurilgan. Haykaltaroshlikda elief ic uyg‘unlik, simmetriya va statistikaga e‘tibor berilgan (fir‘avn Xasaxem xaykali, miloddan avvalgi 3ming yillik boshlari).

Qadimgi podsholik davrida badiiy usullar takomillashgan, yangi me‘moriy tiplar paydo bo‘lgan. Me‘mor Imxotep exromning me‘moriy tipini yaratadi. U fir‘avn Joser uchun Sakkarada marhumlar ruhiga bag‘ishlab marosimlar o‘tkaziladigan majmua bunyod etadi, uning markazida pog‘onali maqbara — ehrom (balandligi 60 m., asosi 109,2x121 m) qurgan. Keyinchalik Qadimgi podsholik me‘morlari faqat ehrom shakllarini takomillashtirganlar. Gizada me‘mor Xemnun fir‘avn Xeops uchun qurgan ehrom (balandligi 146,59 m, asosi 233x233 m), shuningdek, fir‘avnlr Xefren (balandligi 143,3 m, asosi 215,25x215,25 m), Mi-kerin (balandligi 62 m, asosi 108,4x108,4 m) ehromlari (barchasi Gizada) shunday inshootlar qatoriga kiradi. Qadimgi podsholik davrida ibodatxonalarning yangi tipi paydo bo‘lgan, ular odatda Misrning bosh ma‘budi — Quyosh ma‘-budi Raga bag‘ishlangan. To‘g‘ri to‘rtburchak tarhli bunday ibodatxonani, odatda, ochiq qovlisi bo‘lib, uning chekkalarida sajdagohlar va uchiga oltin qoplangan obelisk joylashgan. Maqbara va ibodatxonalar devoriy rasmlar, elief va haykallar bilan bezatilgan. Bu davrda haykal portretlar san‘ati taraqqiy etdi. M.liklar tasavvuricha haykal portretlar marhumlarning qiyofadoshi rolini o‘tab, marhumlarning ruxlari joylashgan joy vazifasini o‘tashgan.

Qadimgi Misrda amaliy-bezak san‘ati yuksak darajada taraqqiy etganligiga bizgacha saqlanib qolgan shifer, ganch, billurdan ishlangan idishlar, fil suyagi va yog‘ochdan yasalgan qoshiqchalar, tilla baldoq, uzuk, munchoqlar, qimmatbaho toshlar qadab, o‘yma naqsh, tasvir ishlangan qutichalar, badiiy mebel va boshqa misol bo‘lishi mumkin.

Misr Aleksandr tomonidan bosib olingach, mamlakat ellinistik madaniyat, keyinchalik Qad. Rim madaniyati ta‘sir doirasiga kirgan (Edfudagi ma‘-bud Gor ibodatxonasi, miloddan avvalgi III-I asrlar; Fayyum voqasidan topilgan rangtasvir portretlar, milodiy 1—4-asrlar). M. Vizantiya xukmronligi ostiga o‘tishi bilan (4-asr oxiri), mamlakatda xristian san‘atining o‘ziga xos mahalliy ko‘rinishi shakllangan. Mamlakatni arablar fathetgach (7-asr), Misr arab madaniyati tarqalgan viloyatlardan biriga aylangan.

Xulosa. Qadimgi Misr tsivilizatsiyasi, o‘zining boy madaniyati, ilg‘or texnologiyalari va ijtimoiy tuzilmalari bilan insoniyat tarixida muhim o‘rin tutadi. U, eng avvalo, Nilo daryosi atrofida rivojlanib, bu hududda iqtisodiy va qishloq xo‘jaligi

faoliyatini tashkil etdi. Faraonlar boshchiligida davlat tuzilishi, din va siyosatning uyg'unligi misrliklarning hayotiga chuqur ta'sir ko'rsatdi.

Qadimgi Misrning arxitekturasini, jumladan, piramidalar va ibodatxonalar, bu madaniyatning yuksak darajadagi mahoratini namoyish etadi. Ushbu inshootlar nafaqat diniy va siyosiy ahamiyatga ega bo'lib, balki bugungi kunda ham insoniyatning ajoyib yodgorliklari sifatida qadrlanadi. Misr san'ati, adabiyoti va ilm-fani, o'zining xilma-xilligi va chuqurligi bilan qadimgi jamiyatning ijtimoiy hayotini yoritadi.

Qadimgi Misrning ilm-fan sohasidagi yutuqlari, xususan, astronomiya, matematika va tibbiyot, hozirgi zamon ilm-faniga ham ta'sir ko'rsatdi. Misrliklarning astronomik bilimlari va kalendar tizimi zamonaviy hisoblash tizimlarining asosini tashkil etdi. Shuningdek, ularning tibbiyot sohasidagi bilimlari, tabiiy dori-darmonlar va sog'liqni saqlash usullari bugungi tibbiyotda ham muhim ahamiyatga ega.

Qadimgi Misr merosi, zamonaviy ilmiy tadqiqotlar va arkeologik topilmalar orqali yanada kashf etilmoqda. Uning tarixiy yodgorliklari, san'ati va madaniyati insoniyat uchun ajoyib ilhom manbai bo'lib xizmat qiladi. Misrning qadimgi tarixidan olingan saboqlar, hozirgi kunda jamiyatimizni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Umuman olganda, qadimgi Misr tsivilizatsiyasi bizga o'z zamonida yuksak rivojlangan madaniyatni, ilmiy yutuqlarni va ijtimoiy tizimni ko'rsatadi. U nafaqat tarixiy ahamiyatga ega, balki hozirgi davrda ham bizning madaniyatimizning ajralmas qismi sifatida qadr topadi. Qadimgi Misr haqida o'rganish, insoniyat tarixini chuqurroq anglashimizga yordam beradi va kelajak avlodlar uchun muhim merosni saqlab qolishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.Xrestomatiya po istorii Drevnego Vostoka, pod. Red;
- 2.V. V. Struve i D. G. Redera, M., 1963; Struve V. V.;
3. Qadimgi Sharq tarixi, T., 1956; Turayev B. A.;
- 4.Yegipetskaya literatura, t. I, M., 1920;
- 5.Matye M. E., Iskusstvo Drevnego Yegipta, M., 1958;
- 6.Vseobshaya istoriya arxitekturi, t. I, M., 1970 Inaya kultura Yegipta, v kn.;
- 7.Muzikalnaya kultura drevnego mira, [Sb. statey], L., 1937; L a u yer J. F.,
- 8.Zagadki yegipetskix piramid, per. s frans., M., 1966; Ney
- 9.Briant, P. (2002). From Cyrus to Alexander: A History of the Persian Empire. Winona Lake: Eisenbrauns.
- 10.Kuhrt, A. (2007). The Persian Empire: A Corpus of Sources from the Achaemenid Period. London: Routledge.
- 11.Dandamaev, M. A. (1989). A Political History of the Achaemenid Empire. Leiden: Brill.
- 12.Wiesehöfer, J. (2001). Ancient Persia: From 550 BC to 650 AD. London: I.B. Tauris.
- 13.Curtis, J. & Tallis, N. (2005). Forgotten Empire: The World of Ancient Persia. London: British Museum Press.
- 14.Brosius, M. (2006). The Persians: An Introduction. London: Routledge.
- 15.Waters, M. (2014). Ancient Persia: A Concise History of the Achaemenid Empire, 550-330 BCE. Cambridge: Cambridge University Press.